№6/2026



ADPI
Ilmiy xabarnomasi

MOBIL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TALABALARNING MUSTAQIL NOTIQLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

U.B.Ismoilov
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.
Maqolada oliy ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil notiqlik faoliyatini mobil ta'lim texnologiyalari vositasida tashkil etishning didaktik asoslari yoritilgan. Mustaqil notiqlik faoliyati va mobil ta'lim tushunchalarining pedagogik mohiyati aniqlashtirilib, jarayonning nazariy-metodologik asoslari ijtimoiy-madaniy yondashuv, o'z-o'zini boshqarib o'qish nazariyasi va mobil ta'lim nazariyasi asosida tahlil qilingan. Didaktik tamoyillar, tashkil etish modeli, pedagogik shart-sharoitlar hamda natijalarni baholash mezonlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar:
mobil ta'lim, mustaqil ta'lim, notiqlik, didaktik asoslar, talaba, raqamli kompetentlik, o'z-o'zini baholash.

Аннотация.
В статье рассматриваются дидактические основы организации самостоятельной ораторской деятельности студентов высших учебных заведений с использованием мобильных образовательных технологий. Разъясняется педагогическая сущность понятий самостоятельной ораторской деятельности и мобильного образования, анализируются теоретико-методические основы процесса на основе социокультурного подхода, теории самонаправленного обучения и теории мобильного образования. Обосновываются дидактические принципы, организационная модель, педагогические условия и критерии оценки результатов.

Ключевые слова:
мобильное обучение, самостоятельное обучение, публичные выступления, дидактические основы, студент, цифровая компетентность, самооценка.

Abstract.
The article covers the didactic foundations of organizing independent oratory activities of students in higher education using mobile educational technologies. The pedagogical essence of the concepts of independent oratory activities and mobile education is clarified, and the theoretical and methodological foundations of the process are analyzed based on the socio-cultural approach, the theory of self-directed learning and the theory of mobile education. Didactic principles, organizational model, pedagogical conditions, and criteria for evaluating results are substantiated.

Keywords:
mobile learning, independent learning, public speaking, didactic foundations, student, digital competence, self-assessment.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim oldiga qo'yilgan asosiy talablardan biri bitiruvchini faqat tayyor bilimlarni yod olgan mutaxassis emas, balki o'z fikrini asoslay oladigan, muloqotga kirisha oladigan va o'z ustida mustaqil ishlashga qodir shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu ma'noda notiqlik madaniyati talabaning kasbiy tayyorgarligidan ajratib bo'lmaydigan qismga aylanib bormoqda: bo'lajak o'qituvchi dars beradi, huquqshunos himoya nutqi so'zlaydi, iqtisodchi loyihasini taqdim etadi, muhandis o'z yechimini hamkasblariga tushuntiradi. Nutq ko'nikmasi esa faqat auditoriyada, haftasiga bir-ikki soatlik mashg'ulot bilan shakllanmaydi. U ko'p takrorlashni, o'z nutqini tashqaridan kuzatishni va xatolar ustida izchil ishlashni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini kuchaytirish vazifalari alohida ta'kidlangan [1]. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ham ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan va masofaviy ta'lim shakllaridan foydalanish uchun huquqiy zamin yaratadi [2]. Shu bilan birga, hujjatlarda belgilangan bu yo'nalishlarning aniq fan sohalarida, jumladan, notiqlik ko'nikmalarini shakllantirishda qanday didaktik mantiq bilan amalga oshirilishi masalasi hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Amaliyotda bir qarama-qarshilik seziladi. Bir tomondan, deyarli har bir talabaning

ISSN 2181-4309

qo‘lida smartfon bor va u o‘z ovozini yozib olish, videoga tushirish, o‘quv materialini istalgan joyda ko‘rish imkonini beradi. Boshqa tomondan, bu imkoniyatlar ko‘pincha o‘quv maqsadida emas, muloqot va ko‘ngilochar maqsadlarda ishlatiladi, mustaqil topshiriqlar esa an’anaviy referat va yozma tayyorgarlik bilan cheklanib qoladi. Natijada talaba nutq so‘zlash haqida ko‘p o‘qiydi, lekin uni yetarli darajada mashq qilmaydi. Mobil texnologiyalar pedagogik jihatdan asoslangan tizimga birlashtirilmasa, ular mustaqil ish samaradorligini oshirmaydi, aksincha, diqqatni tarqatuvchi omilga aylanishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi mobil ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning mustaqil notiqlik faoliyatini tashkil etishning didaktik asoslarini nazariy jihatdan asoslash va tashkil etish modelini taklif qilishdan iborat. Tadqiqot obyekti oliy ta’lim muassasasida talabalarning notiqlik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni, predmeti esa shu jarayonning mobil texnologiyalar asosida mustaqil tashkil etilishidagi didaktik qonuniyatlar, tamoyillar va shart-sharoitlardir. Ishda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy-pedagogik tahlil, modellashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda mustaqil notiqlik faoliyati avvalo talaba o‘zi boshqaradigan o‘quv jarayoni sifatida talqin qilinadi va mobil vositalar bu jarayonning har bir bosqichi bilan didaktik jihatdan bog‘lanadi. Amaliy ahamiyati esa taklif etilgan tamoyillar va mezonlardan notiqlik, muloqot madaniyati kabi fanlarni o‘qitishda, shuningdek, mustaqil ta’lim topshiriqlarini loyihalashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Asosiy qism. Pedagogik nuqtai nazardan notiqlik faoliyati bir vaqtning o‘zida bir necha qobiliyatni talab qiladi: tafakkur mantiqini, til boyligini, ovoz va tana vositalarini boshqarishni hamda tinglovchi bilan aloqa o‘rnatishni. Shu sababli uni faqat nazariy bilim berish bilan shakllantirib bo‘lmaydi. Pedagogik texnologiya ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, natijani aniq maqsadga bog‘lash va uni tekshirib borish g‘oyasiga tayanadi [3]. Bu yondashuv notiqlik kabi amaliy ko‘nikmalar uchun ayniqsa mos, chunki natija bu yerda tinglovchi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi va uni kuzatish mumkin.

Mustaqil faoliyat deganda esa talabaning o‘qituvchi bevosita ishtirokisiz, ammo uning topshirig‘i, rejasi va nazorati ostida bajaradigan ishi tushuniladi. Uning mohiyati topshiriqni bajarishning o‘zida emas, balki o‘quv maqsadini anglash, ish usulini tanlash va natijani baholashda talabaning o‘zi ishtirok etishidadir. Notiqlik sohasida bu shunday ko‘rinadi: talaba nutq mavzusi va maqsadini o‘zi aniqlaydi, tinglovchini tasavvur qiladi, matn ustida ishlaydi, mashq qiladi va o‘z chiqishini tahlil qiladi. Demak, mustaqil notiqlik faoliyati talabaning o‘zi boshqaradigan, maqsadli, natijasi kuzatib boriladigan va nutq madaniyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatidir. Mobil ta’lim tushunchasiga kelsak, uni ko‘pincha "ta’limni smartfon orqali olish" deb tor ma’noda tushunishadi. Kukulska-Hulme va Traxler esa mobil ta’limni qurilmaning ko‘chma bo‘lishi bilan emas, o‘quv jarayonining vaqt va makonga bog‘liqligini o‘zgartirishi bilan izohlaydi [4]. Sharples va uning hamkasblari mobil ta’lim nazariyasini yaratishda o‘quvchining ham, qurilmaning ham, o‘rganish kontekstining ham harakatchanligiga e’tibor qaratgan. Ularning fikricha, o‘rganish turli joylarda, turli mavzular orasida va turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqotda sodir bo‘ladi, texnologiya esa bu muloqotni qo‘llab-quvvatlovchi vositaga aylanadi [5]. Bu fikrni notiqlikka tatbiq etsak, talaba nutqini auditoriyada emas, yotoqxonada, yo‘lda yoki uyda ham mashq qilishi, uni yozib olib, o‘qituvchi yoki guruhdoshlariga yuborishi mumkinligi ma’lum bo‘ladi.

Mobil ta’limga bag‘ishlangan tadqiqotlar hajmi ham bu yo‘nalishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Crompton va Burke oliy ta’limda mobil ta’limdan foydalanishga oid ishlarni tizimli

ISSN 2181-4309

tahlil qilib, bu soha tez rivojlanayotganini, ko‘p tadqiqotlarda o‘quv natijalari va talaba faolligi bo‘yicha qulay xulosalar berilganini ko‘rsatadi [6]. Shu bilan birga, bunday tadqiqotlarning ko‘pchiligi texnologiya imkoniyatlarini tavsiflashga urg‘u beradi, undan foydalanishning didaktik mantig‘i esa ikkinchi darajada qoladi. Bu holat maqolamizdagi muammoni yana bir bor asoslaydi: mobil vositaning o‘zi ta’lim natijasini kafolatlamaydi, natijani uni o‘quv maqsadiga qanday bog‘lashimiz belgilaydi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, mobil ta’lim texnologiyalari vositasida mustaqil notiqlik faoliyatini tashkil etish deganda talabaning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv harakatlarini mobil qurilmalar va ularning dasturiy imkoniyatlari yordamida, vaqt va joyga bog‘lanmagan holda, o‘qituvchi loyihalagan didaktik tizim doirasida amalga oshirishni tushunamiz. Bu ta’rifda ikki nuqta muhim. Birinchisi, tashkil etish o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, u oldindan loyihalanadi. Ikkinchisi, mobil vosita maqsad emas, faoliyatning vositasidir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, notiqlik va mustaqil ta’lim tushunchalarining o‘zaro kesishuvi tasodifiy emas. An’anaviy o‘qitish tizimida notiqlik ko‘nikmalari ko‘pincha "nutq so‘zlash" fanining alohida mavzulari sifatida, cheklangan auditoriya soatlari doirasida o‘rgatiladi. Bunday yondashuvda talabaning mustaqil ravishda mashq qilish imkoniyati deyarli hisobga olinmaydi, chunki mashqning o‘zi ko‘proq tinglovchi va nazoratchi ishtirokini talab qiladi deb tushuniladi. Ammo zamonaviy pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, notiqlik ko‘nikmasining muhim qismi, xususan, matn tuzish, ovozni sinash, nutq tempini moslashtirish kabi jarayonlar talabaning yolg‘iz o‘zi, hatto tinglovchisiz ham amalga oshirilishi mumkin. Aynan shu nuqtada mobil texnologiya o‘zining didaktik salohiyatini namoyon qiladi: u yolg‘iz mashq qilish jarayonini ham nazoratga oladigan, uni hujjatlashtiradigan va keyinchalik tahlil qilish imkonini beruvchi vositaga aylanadi.

Notiqlik ko‘nikmasini mustaqil shakllantirishda talabaning ichki nutqi bilan tashqi nutqi o‘rtasidagi farqni anglashi ham muhim didaktik masala hisoblanadi. Ko‘pchilik talaba o‘z fikrini ichida ravon va mantiqiy deb o‘ylaydi, ammo uni ovoz chiqarib ifodalashga harakat qilganda tuzilma buziladi, so‘z tanlashda qiynaladi yoki ortiqcha to‘ldiruvchi so‘zlarga murojaat qiladi. Bu hodisa faqat ovoz chiqarib mashq qilish orqaligina aniqlanadi, oddiy o‘qish yoki yozish mashqlari bunday kamchiliklarni ko‘rsatib bera olmaydi. Mobil qurilmaning istalgan vaqtda ovoz yozib olish imkoniyati aynan shu muammoni erta bosqichda aniqlash va tuzatish uchun qulay sharoit yaratadi, chunki talaba auditoriya kutmasdan, o‘zi xohlagan vaqtda bir necha bor sinab ko‘rishi mumkin.

Didaktik asoslarni izlashda ta’lim va rivojlanish jarayonini tushuntiruvchi nazariyalarga murojaat qilish tabiiy. Bu yerda uchta yondashuv bir-birini to‘ldiradi: rivojlanishning ijtimoiy-madaniy nazariyasi, o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish nazariyasi va mobil ta’limning muloqotga asoslangan nazariyasi. Vygotskiy inson oliy psixik funksiyalari ijtimoiy o‘zaro ta’sirda va belgi hamda vositalar yordamida shakllanishini asoslab bergan [7]. Uning yaqin taraqqiyot zonasi haqidagi g‘oyasi bizning mavzu uchun alohida ahamiyatga ega: talaba yolg‘iz o‘zi bajara olmaydigan, ammo tajribali odam yordamida uddalaydigan ishlar doirasi rivojlanishning asosiy maydonidir. Mustaqil notiqlik faoliyatida o‘qituvchi shu zonada tayanch vazifasini bajaradi. Talaba nutqni o‘zi tayyorlaydi va mashq qiladi, o‘qituvchi esa yozib olingan chiqish bo‘yicha yo‘naltiruvchi savollar beradi, namuna ko‘rsatadi, murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshiradi. Mobil vositalar bu aloqani uzmasdan davom ettirishga imkon beradi, ya’ni yordam faqat dars vaqtida emas, talaba mashq qilayotgan paytga yaqin vaqtda ham beriladi. Smartfon

ISSN 2181-4309

talabaning nutqini tashqi ko‘zgu vazifasini bajaradigan narsaga aylantiradi, u o‘zini chetdan eshitadi va ko‘radi, bu esa o‘zini anglash uchun qulay sharoit yaratadi.

Zimmerman o‘z-o‘zini boshqarib o‘qishni o‘quvchi o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va harakatlarini o‘quv maqsadiga erishish uchun rejalashtirib, tartibga solib turadigan jarayon deb ta’riflaydi va uni uch bosqichli sikl sifatida ko‘rsatadi: dastlabki rejalashtirish, ijro jarayonida o‘zini nazorat qilish va bajarilgandan keyingi o‘z-o‘zini baholash [8]. Bu sxema notiqlik faoliyati bilan yaxshi mos tushadi. Rejalashtirish bosqichida talaba nutq maqsadini belgilaydi, tinglovchilar tarkibini tahlil qiladi, o‘z kuchli va zaif tomonlarini baholaydi. Ijro bosqichida u nutqni bir necha marta mashq qiladi, vaqtni o‘lchaydi, ovozini yozib oladi, e’tiborni nutqning muayyan jihatiga qaratadi. Yakuniy bosqichda esa yozuvni tinglab yoki ko‘rib, nima o‘xshaganini va nima o‘xshamaganini aniqlaydi, keyingi mashqqa tuzatish kiritadi. Mobil qurilma bu siklning barcha bosqichlarida kerak bo‘ladi: eslatma va rejalashtiruvchi ilovalar birinchi bosqichda, ovoz va video yozuvi ikkinchi bosqichda, yozuvni qayta ko‘rish va izoh qoldirish imkoniyati uchinchi bosqichda qo‘l keladi. Shu tariqa mobil texnologiya o‘z-o‘zini boshqarish jarayonini ko‘rinadigan va tekshirish mumkin bo‘lgan holga keltiradi. Sharples va hamkasblari taklif etgan nazariyada o‘rganish muloqot orqali, turli kontekstlar orasida yuz beradigan jarayon deb qaraladi, texnologiya esa bu muloqotni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida tavsiflanadi [9]. Bu qarash notiqlikning o‘zi muloqot faoliyati bo‘lgani uchun ayniqsa qimmatli. Talaba nutqini guruhdoshlariga yuborib, ularning fikrini olishi, o‘z nutqi haqidagi savollarga javob berishi, boshqalarning chiqishlarini tahlil qilib, o‘zi ham o‘rganishi mumkin. Kontekstlar almashuvi esa o‘zlashtirilgan ko‘nikmani turli vaziyatlarga ko‘chirishga yordam beradi: talaba bir nutqni xonada, keyin ko‘chada, keyin guruh oldida takrorlab, o‘z ovozi va o‘zini tutishini har xil sharoitga moslashtiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasi ham bu masalada o‘z o‘rniga ega. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan ishlarda talaba ta’lim jarayonining obyekti emas, faol subyekti sifatida qaraladi, o‘qituvchining vazifasi esa bilim uzatish bilan cheklanmay, faoliyatni tashkil qilish va yo‘naltirishga aylanadi. Bu qarash mustaqil notiqlik faoliyatining o‘zagini tashkil etadi. Zero, talaba o‘z nutqi uchun o‘zi mas’ul bo‘lmasa, o‘qituvchining izohlari ham, texnologiyaning imkoniyatlari ham unga yordam bermaydi. Ushbu nazariyalarni birlashtirib, quyidagi metodologik xulosaga kelish mumkin. Notiqlik ko‘nikmasi rivojlanishning ijtimoiy tabiatini hisobga olgan holda, talabaning o‘zini boshqarishiga tayangan holda va muloqot hamda kontekstlar almashuviga suyangan holda shakllantirilishi kerak. Mobil vosita esa bu uch yondashuvni amaliyotda bog‘laydigan ko‘prik vazifasini o‘taydi: u yordamni yaqinlashtiradi, o‘z-o‘zini kuzatishni osonlashtiradi va muloqotni davom ettiradi. Didaktik asoslar aynan shu uch tayanchdan kelib chiqadi.

Nazariy tahlilni yakunlashdan oldin, yuqorida ko‘rib chiqilgan uchta nazariyaning o‘zaro munosabatini alohida izohlash foydali. Vygotskiy nazariyasi bizga rivojlanishning kim bilan va qanday ijtimoiy muhitda sodir bo‘lishini tushuntiradi, ya’ni u "kim yordam beradi" degan savolga javob beradi. Zimmerman nazariyasi esa talabaning ichki jarayonini, ya’ni u o‘z faoliyatini qanday rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashini ochib beradi - bu “talaba o‘zi nima qiladi” degan savolga javobdir. Sharples va hamkasblarining mobil ta’lim nazariyasi esa ushbu ikki jarayon qayerda va qanday vositalar bilan amalga oshishini ko‘rsatadi, ya’ni "qayerda va nima orqali" degan savolga javob beradi. Uch nazariyaning birlashuvi shuni ko‘rsatadiki, mustaqil notiqlik faoliyatini tashkil etish uchun faqat texnologik vositalarni taqdim etishning o‘zi kifoya qilmaydi - bu vositalar ijtimoiy yordam tizimi va talabaning o‘z-

ISSN 2181-4309

o‘zini boshqarish mexanizmlari bilan uyg‘un holda ishlashi zarur. Aks holda, texnologiya faqat "raqamli vositachi" bo‘lib qoladi, lekin didaktik samara bermaydi.

Didaktika ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglilik va faollik, ko‘rgazmalilik, mustahkamlik, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi kabi qoidalarga tayanadi. Bu tamoyillar mobil muhitda ham o‘z kuchini saqlaydi, ammo notiqlik faoliyatining o‘ziga xosligi va mobil texnologiyalar xususiyati ularni muayyan tarzda ma’nolashtirishni talab qiladi. Avvalo, tizimlilik va izchillik tamoyili mobil muhitda mikro-mazmun bilan ishlash orqali amalga oshadi. Talaba smartfonda uzoq ma’ruzani emas, qisqa, aniq bir ko‘nikmaga bag‘ishlangan materiallarni, masalan, nutq boshlanishining usullari, pauzadan foydalanish yoki ovoz ohangini boshqarish kabi mavzularni ketma-ket o‘zlashtirishi qulay. Qisqa hajm diqqatni saqlaydi, ketma-ketlik esa ko‘nikmalar yig‘indisini aniq tizimga birlashtiradi. Faollik tamoyili talabaning faqat tomosha qilish bilan cheklanmasligini, har bir mikro-mazmun ortidan uni bajarish topshirig‘i, ya’ni o‘z ovozini yozib olish yoki qisqa chiqish videosini tayyorlash turishini bildiradi. Ko‘rgazmalilik tamoyili mobil sharoitda namunalarni, ya’ni mahoratli notiqlar chiqishlarini takroran ko‘rish va eshitish imkoniyati bilan boyiydi, talaba bir xil chiqishni turli nuqtai nazardan qayta tahlil qila oladi.

Bundan tashqari, ilmiylik va nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyillari mobil muhitda mazmunning ishonchliligi va tizimliligi orqali ta’minlanadi. Mobil ilovalarga yuklanadigan har bir mikro-mazmun ritorika va pedagogika fanining tan olingan nazariy asoslariga tayanishi, tasodifiy yoki tekshirilmagan manbalardan olinmasligi lozim. Aks holda, talaba internetda keng tarqalgan, lekin ilmiy asoslanmagan "maslahatlar"ni haqiqiy bilim deb qabul qilib olish xavfi tug‘iladi. Shu sababli o‘qituvchi mobil mazmunni tanlash yoki yaratishda uning ilmiy manbaga asoslanganligini alohida nazorat qilishi, zarur bo‘lganda mavjud materiallarni o‘zi qayta ishlab, o‘quv maqsadiga moslashtirishi kerak. Ikkinchidan, mobil ta’lim mustaqil notiqlik faoliyatining o‘ziga xos tamoyillarini ham keltirib chiqaradi. Bularning eng asosiysi teskari aloqaning tezkorligi tamoyilidir. Notiqlikda xatoni o‘z vaqtida ko‘rsatish ko‘nikmani to‘g‘ri yo‘lga soladi, kech berilgan izoh esa ko‘pincha ta’sirini yo‘qotadi. Yozib olingan chiqishga o‘qituvchi yoki guruhdoshlar sharh qoldirishi, talabaning o‘zi esa yozuvni takroran eshitishi bu tezkorlikni ta’minlaydi. Yana bir tamoyil moslashuvchanlik va shaxsiylashtirishdir: talaba o‘z sur’atida, o‘ziga qulay vaqtda va zaif tomonlariga mos ravishda ishlaydi. Notiqlik sohasida bu ayniqsa muhim, chunki ba’zilar uchun asosiy qiyinchilik sahna qo‘rquvi, boshqalar uchun nutq tuzilmasi yoki nutq tempi bo‘lishi mumkin. Uchinchi tamoyil kontekstuallik va haqiqiy vaziyatlarga yaqinlik bo‘lib, u talabaning nutqini turli, haqiqiy yoki unga yaqin vaziyatlarda mashq qilishini nazarda tutadi.

Ushbu tamoyillar asosida mustaqil notiqlik faoliyatini tashkil etish modelini taklif qilish mumkin. Model to‘rt o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismdan iborat: maqsad-motivatsion, mazmun, texnologik-jarayon va natijaviy-baholash komponentlari. Maqsad-motivatsion komponent talabaning notiqlik ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruratini anglashini, o‘z shaxsiy maqsadlarini belgilashini o‘z ichiga oladi. Mazmun komponenti mobil formatga moslashtirilgan o‘quv materiallari, ya’ni qisqa video darslar, audio tavsiyalar, namunaviy nutqlar va o‘z-o‘zini tekshirish ro‘yxatlari majmuidan tashkil topadi. Texnologik-jarayon komponenti faoliyat bosqichlari va ularda qo‘llaniladigan mobil vositalarni belgilaydi. Natijaviy-baholash komponenti esa mezonlar, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash mexanizmlarini qamrab oladi.

Jarayonning o‘zi Zimmerman siklidan kelib chiqib, bosqichma-bosqich quriladi. Boshida talaba diagnostik topshiriq bajaradi: qisqa mavzuda o‘z nutqini yozib oladi va tayyor mezonlar asosida o‘zini baholaydi, o‘qituvchi bilan birgalikda shaxsiy maqsad belgilaydi. So‘ngra

ISSN 2181-4309

mazmunni o‘zlashtirish bosqichi keladi, unda talaba mobil qurilmada tegishli mikro-mazmunni ko‘rib chiqadi va uni o‘z nutqiga tatbiq etadi. Keyingi bosqich amaliy mashq bo‘lib, unda talaba nutqini bir necha marta mashq qilib, ovoz yoki video shaklida yozib boradi. Undan keyin yozuvlar tahlil qilinadi: talaba o‘z chiqishini mezonlar bo‘yicha baholaydi, o‘qituvchi va guruhdoshlar izoh beradi. Nihoyat, talaba aniqlangan kamchiliklarni tuzatib, tinglovchilar oldida, ya’ni auditoriya sharoitida yoki onlayn tarzda ommaviy chiqish qiladi. Bu chiqish yangi diagnostika vazifasini ham bajaradi va sikl yangi maqsad bilan qaytadan boshlanadi.

Modelning muhim jihati shundaki, mobil faoliyat va auditoriya mashg‘ulotlari bir-birini almashtirmaydi, aksincha, to‘ldiradi. Auditoriyada tinglovchilar oldida chiqish, jonli munosabat, nafas va tana tili ustida ishlash imkoniyati saqlanadi. Mobil muhit esa mashqlar sonini oshiradi va ular orasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi. Shu ma’noda taklif etilgan model aralash ta’lim mantig‘iga yaqin. Modelni amaliyotga tatbiq etishda haftalik tsikl shaklidagi tashkiliy jadval qulaylik yaratadi. Masalan, haftaning boshida talaba mobil ilova orqali yangi mikro-mazmun bilan tanishadi va shu asosda o‘z nutqining qisqa loyihasini tuzadi. Hafta o‘rtasida u nutqni kamida ikki-uch marta mashq qilib, eng yaxshi variantini yozib oladi. Hafta oxiriga kelib esa yozuvni guruh chatiga yuklaydi, kamida ikkita guruhdoshidan izoh oladi va o‘qituvchining umumiy sharhini kutadi. Bunday davriylik talabani doimiy faollikda ushlab turadi, shu bilan birga haddan tashqari yuklanishning oldini oladi, chunki har bir hafta uchun aniq va cheklangan hajmdagi vazifa belgilanadi. Davriylikning yana bir afzalligi shundaki, u o‘qituvchiga guruhning umumiy rivojlanish sur’atini kuzatish va zarur bo‘lganda mazmunni tezda moslashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Olib borilgan tahlil natijasida mobil ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning mustaqil notiqlik faoliyatini tashkil etish oliy ta’lim didaktikasining amaliy jihatdan muhim va yetarlicha o‘rganilmagan yo‘nalishi ekani aniqlandi. Mustaqil notiqlik faoliyati talabaning maqsad qo‘yish, nutqni tayyorlash, mashq qilish va o‘z chiqishini tahlil qilishdan iborat, o‘zi boshqaradigan o‘quv faoliyati sifatida talqin qilindi. Mobil ta’lim esa o‘quv jarayonini vaqt va joyga bog‘lamaydigan, o‘qituvchi loyihalagan didaktik tizim doirasidagi vosita sifatida aniqlashtirildi. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi, Zimmermanning o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish nazariyasi va Sharples hamkasblarining mobil ta’lim nazariyasi mavzuning nazariy-metodologik tayanchini tashkil etadi. Ularning uyg‘unligi mobil vosita talabaga yordamni yaqinlashtirishini, o‘z-o‘zini kuzatishni osonlashtirishini va muloqotni davom ettirishini ko‘rsatadi. Ushbu uch nazariyaning birgalikda qo‘llanilishi shuni ko‘rsatadiki, texnologik vosita pedagogik g‘oyadan ajratilgan holda emas, balki aniq nazariy asosga tayangan holdagina kutilgan natijani berishi mumkin.

Didaktik tamoyillar sifatida tizimlilik va izchillik, faollik, ko‘rgazmalilik kabi an’anaviy tamoyillarning mobil muhitdagi mazmuni hamda teskari aloqaning tezkorligi, moslashuvchanlik va shaxsiylashtirish, kontekstuallik kabi yangi tamoyillar asoslab berildi. Ularga tayanib, maqsad-motivatsion, mazmun, texnologik-jarayon va natijaviy-baholash komponentlaridan iborat model hamda diagnostika, mazmunni o‘zlashtirish, amaliy mashq, tahlil va ommaviy chiqishni o‘z ichiga olgan jarayon tavsiflandi. Modelning samarali amalga oshishi o‘qituvchi rolining o‘zgarishi, talabaning o‘z-o‘zini boshqarishga tayyorligi, texnik va tashkiliy muhit hamda yozuvlar maxfiyligini ta’minlash kabi shart-sharoitlarga bog‘liqligi aniqlandi. Natijalarni baholash uchun mazmun, tuzilma, nutq madaniyati, noverbal vositalar, auditoriya bilan aloqa va mustaqillik mezonlari taklif qilindi. Bu mezonlarning tavsifiy shaklda

ISSN 2181-4309

va milliy nutq madaniyati xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi ularning amaliyotda qo‘llanilishini yanada samarali qiladi.

Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan modelni pedagogik tajriba-sinovda tekshirish, talabalar guruhlari o‘rtasida solishtirish va mezonlarning ishonchliligini aniqlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari uchun mustaqil ta’lim topshiriqlarini loyihalashda taklif etilgan tamoyillardan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son. – Toshkent, 2020.

3. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 100 b.

4. Kukulska-Hulme A., Traxler J. Mobile Learning: A Handbook for Educators and Trainers. – London: Routledge, 2005. – 224 p.

5. Sharples M., Taylor J., Vavoula G. A theory of learning for the mobile age // Andrews R., Haythornthwaite C. (eds.) The Sage Handbook of E-learning Research. – London: Sage, 2007. – P. 221–247.

6. Crompton H., Burke D. The use of mobile learning in higher education: A systematic review // Computers & Education. – 2018. – Vol. 123. – P. 53–64.

7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

8. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41, No. 2. – P. 64–70.

9. Sharples M., Taylor J., Vavoula G. A theory of learning for the mobile age // Andrews R., Haythornthwaite C. (eds.) The Sage Handbook of E-learning Research. – London: Sage, 2007. – P. 221–247.

MUNDARIJA

U.B.Ismoilov
MOBIL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TALABALARNING MUSTAQIL NOTIQLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI 195 201

Parpiev Tursunboy Hojiyevich
SHERALI JO'RAYEV QO'SHIQLARINING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING PEDAGOGIK MEZONLARI 202 205

G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI..... 206 210

Umarov Azizbek Vaxobovich
PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI VA MUAMMOLARI 211 215

Umarov Azizbek Vaxobovich
MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROTLI YONDASHUVNING PEDAGOGIK MOHIYATI VA IMKONIYATLARI 216 220

Turg'untoshev Muxlisbek Ilhomjon o'g'li
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGI VA SOG'LOM OVQATLANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 221 226

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich
ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLAR – O'QUVCHI-YOSHLARDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING ASOSI SIFATIDA 227 231

Q.Q.Toshtemirov
INKLYUZIV TA'LIMDA BOLALARNI MUSIQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH..... 232 238

Xabibullayeva Madinaxon Muxtorjon qizi
TA'LIM MUHITIDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH VA PEDAGOGIK TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 239 243

A.A.Zaparov, M.D.Samatova
EKONOMETRIKANI O'QITISHDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI 244 249

Mamasodiqova Xusnida Rahimjon qizi
XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PISA, TIMSS, PIRLS) YONDASHUVLARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH..... 250 252

Abduvaxobova Mubinaxon Azizbek qizi
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EMOTSIONAL KONSEPTLARNING FRAZEOLOGIK VERBALIZATSIYASI: LINGVOKOGNITIV VA LINGVOMADANIY TAHLIL 253 257

